

## Mahalladagi munosabatlar

Davlatimiz tomonidan oilalarni mustahkamlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Radio, televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali bu borada turli tuman ko'rsatuv, eshittirish, maqola va hokazolarni e'lon qilish orqali ma'naviy ishlar olib borilmoqda. E'tiboringizni yana bir narsaga qaratmoqni lozim ko'rdik. U ham bo'lsa, ba'zi oilalardagi kelishmovchilikning tilni tiymaslik oqibatida kelib chiqayotganidir. Bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakultetiga birlashtirilgan Mirzo Ulug'bek tumanidagi "Asaka" mahallasiga Yoshlar yetakchisi lavozimiga tayinlangan Puchinyan Artur Yuryevich va "Asaka" mahallasi Xotin-qizlar masalalari bo'yicha raisi Raupova Fotimaxon bilan hamkorlikda mahallada istiqomat qilayotgan qaynona-kelinlar o'rtasida "Oilalarda qaynona-kelin munosabatlari" mavzusida davra suhbatini bo'lib o'tdi. Unda "Yer resurslarini boshqarish" fakultetidan Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova, "Yerdan foydalanish" kafedrasida katta o'qituvchisi Z.Xafizova hamda fakultet tyutorlari ma'ruzachi sifatida ishtirok etishdi.



Ma'lumki, oilalarimizni parokanda qilayotgan janjal-to'polonlarning aksariyati qaynona-kelin mojarolaridan kelib chiqmoqda. Oilaning mustahkamligi jamiyat uchun muhim sanaladi, chunki aynan mana shu oilada jamiyat a'zosi sifatida farzand tarbiya topadi. Ba'zi o'ziga haddan ziyoda bino qo'ygan qaynonalar o'zlarini bamisoli bir qirolichadek, kelinlarini esa cho'ridek hisob qiladilar. Arzimas sabablar bilan kelinlarini turtkilayveradilar. Kelin sal uxlab qolsa, yoki qaynonaning oyoq kiyimini to'g'rilab qo'ymagan bo'lsa, yoki hadeganda bo'yida bo'lavermasa, boshidan tegirmon toshi yurgizadilar. Ba'zi qaynonalar, kelinning uyidan vaqti-vaqti bilan sara-sara narsalar kelib turmasa, sarpo va mebellari yaxshi bo'lmasa keliniga kun bermaydi. Hammaga kelinini yomonlab yuradi, quda-andalarini nazari "past" ekanidan noliydi. Keliniga qo'pol muomala qiladi. Dilini og'ritadi. Bu ham til ofatlariga kiradi. Qaynonalik ham mas'uliyat, o'zga bir oila muhitida tarbiya topgan qizni o'z qizidek qabul qilish, unga g'amxo'rlik ko'rsatish ham katta fidoyilik talab qiladi. Qaynona yuragining bir parchasini o'zga xonadondan kelgan bir qizga tortiq qiladi. Kelin ham

kimningdir ko'z qorachig'iday, asrab-avaylab katta qilgan dilbandi hisoblanad. U shu xonadon davomchilari bo'lgan vorislarini dunyoga keltiradi. Atrofimizda qaynona-kelinlarning yaxshisi ham, yomoni ham bor buni inkor qilish qiyin. Qaynona-kelin muammosi haqida gap ketganda, aybni bir kishidan izlash noto'g'ri, albatta. Ammo kimningdir yaxshi munosabatini suistemol qilib yomonga aylanishiga o'zimiz sababchi bo'lib qolishimiz mumkin.

**YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti**